

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Samarqand viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 37,2 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1-iyul holatiga, birlik	2026-yil 1-iyul holatiga, birlik
Samarqand viloyati	34 124	37 171
Samarqand sh.	10 429	11 698
Kattaqo'rg'on sh. <i>tumanlar</i>	1 102	1 192
Oqdaryo	1 335	1 466
Bulung'ur	1 424	1 468
Jomboy	1 328	1 425
Ishtixon	1 484	1 675
Kattaqo'rg'on	1 616	1 701
Qo'shrabot	885	997
Narpay	1 110	1 197
Payariq	1 645	1 818
Pastdarg'om	2 605	2 730
Paxtachi	885	919
Samarqand	3 153	3 282
Nurobod	1 142	1 230
Urgut	2 468	2 817
Toyloq	1 513	1 556

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


Iqtisodiy faoliyat turlari



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-iyun oylarida 3,6 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2026-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 316 ta, boshqa xizmatlar sohasida 587 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida 456 ta hamda sanoat sohasida 420 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Samarqand viloyati	2 958	3 568
Samarqand sh.	939	1 189
Kattaqo'rg'on sh.	60	87
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	124	147
Bulung'ur	146	99
Jomboy	114	142
Ishtixon	152	141
Kattaqo'rg'on	144	156
Qo'shrabot	81	79
Narpay	106	92
Payariq	126	211
Pastdarg'om	217	275
Paxtachi	85	82
Samarqand	230	345
Nurobod	123	85
Urgut	206	277
Toyloq	105	161

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 67,2 % ni tashkil qilib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan 3,5 % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 829,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 45,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bulung'ur tumani (99,8,%), Oqdaryo tumani (98,1,%), Qo'shrabot tumani (95,5,%), Payariq tumani (93,2 %), va Urgut tumani (82,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 8 055,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 81,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 134,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri (97,4 %), Narpay tumani (96,8 %), Urgut tumani (96,1%) va Paxtachi tuman (94,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 15 090,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 62,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 134,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Narpay tumani (90,0 %), Pastdarg'om (85,7 %), Paxtachi tumanlari (84,9 %) va Samarqand tumani (84,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya
hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi faoliyati**

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 26 149,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 91,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri (100,0 %), Urgut (100,0 %), Narpay (99,8 %), Ishtixon (99,7 %) va Nurobod (99,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 20 024,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 89,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Kattaqo'rg'on shahri (100,0%), Narpay (99,6 %), Jomboy (99,4 %), Ishtixon va Qoshrabot (99,3 %), Toyloq (99,2 %) hamda Payariq (99,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 30 983,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 65,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'shrabot (86,5 %), Narpay (86,0 %), Jomboy (83,7 %) Paxtachi (82,7 %), va Kattaqo'rg'on (82,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 236,6 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 35,5 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qo'shrabot, Payariq, Oqdaryo va Bulung'ur tumanlarida – 100,0 %, Narpay tumanida – 90,5 % va Urgut tumanida – 81,3% ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 626,4 million AQSH dollarini yoki jami importning 41,5 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qo'shrabot tumanida – 100,0 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 99,9 %, Payariq tumanida 98,1 %, Bulung'ur tumanida – 99,7 %, Narpay tumanida – 98,3 %, Nurobod tumanida – 88,6 %, Kattaqo'rg'on tumanida – 81,4 % Urgut tumanida – 78,4 %,ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 82,9 % ni tashkil etdi. 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,8 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 75,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,2 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 92,6% ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,1 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,4 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, 2026-yilning yanvar-iyunida korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun **a'lo** deb baholagan korxonalar ulushi – 15,5%, **yaxshi** deb baholagan korxonalar ulushi – 55,8%, **o'rtacha** deb baholagan korxonalar ulushi – 25,2 va **yomon** deb baholagan korxonalar ulushi – 3,5 %ni tashkil qilgan.

Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli **yaxshilanadi (ko'payish)** deb baholagan korxonalar ulushi – 46,6 %, **o'zgarishsiz** deb baholagan korxonalar ulushi – 47,6 % hamda **yomonlashish (kamayish)** deb baholagan korxonalar ulushi – 5,8 % ni tashkil etgan.

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan korxonalar ulushi – 52,5 %, **o'zgarishsiz** deb baholagan korxonalar ulushi – 45,0 %, **yomonlashish** deb baholagan korxonalar ulushi – 2,5 %, ni tashkil qilgan.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Joriy davrda **a'lo** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar savdoda ulushi – 20,5 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi – 19,1 %, axborot va aloqa ulushi – 17,7 %, sanoatda ulushi – 14,5 %ni tashkil qilgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini **yaxshi** deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoat – 61,3 %, yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar sohasida – 59,8 %ni, axborot va aloqa – 58,8 %ni va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 57,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini **o'rtacha** deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 37,2 %ni, tashish va saqlashda – 34,6 % ni, qurilish – 27,3 % ni, savdoda – 23,7 % ni, yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlarda – 24,1 % ni va sanoat sohasida – 21,6 % ni tashkil etdi.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi – 60,0 %, sanoat ulushi – 50,2 %, qurilish ulushi – 47,6 %, savdodagi ulushi – 49,8 %, ni tashkil qilgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **o'zgarishsiz** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar tashish va saqlash ulushi – 55,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi – 58,9 %, yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi – 53,2 %, savdodagi ulushi – 46,1 %, ni tashkil qilgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar **yomonlashish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar axborot va aloqa ulushi – 14,3 %, tashish va saqlash ulushi – 15,0 %, qurilishdagi ulushi – 8,5 %, ni tashkil qilgan.

Umum iqtisodiy vaziyatining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **yaxshilanish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ulushi – 57,1 %, qurilish ulushi – 57,1 %, sanoat ulushi – 57,3 %, savdo ulushi – 54,1 %, ni tashkil qilgan.

Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **o'zgarishsiz** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar ulushi – 57,7 %, yashash va ovqatlanish buyicha xizmatlar ulushi – 50,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi – 50,0 %, ni tashkil qilgan.

Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli joriy davrdagi o'zgarishlar **yomonlashish** deb baholagan yuqori ulushga ega sohalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi – 5,1 %, axborot va aloqa ulushi – 5,9 %, tashish va saqlash ulushi – 3,8 % ni tashkil qilgan.

VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.



Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
M.Suyarov
66 235-44-85 (3030)

Manzil:
140100, Samarqand sh.,
U.Tursunov ko'chasi, 82-uy
